



DEVELOPING COGNITIVE ABILITIES IN PRESCHOOL CHILDREN THROUGH MODERN INNOVATIVE TECHNOLOGIES

Hakimova Nafosat Solijon qizi

Abstract

This article discusses the development of children's thinking skills through modern innovative technologies, as well as new technologies, methods, and learning approaches.

Keywords: Innovation, technology, innovator, mastery, ICT, play, thought, phonetics, phoneme, industry.

Mamlakatimizda ta'lif taraqqiyotiga bo'lgan e'tibor yuksak darajada rivojlanayotgan bugungi zamonda, maktabgacha ta'lif sohasida ham tub burilishlar davri yuzaga kelishiga asos bo'ldi. Maktabgacha yosh davri inson tafakkuri shakllanishidagi eng muhim bosqich sifatida olimlar tomonidan aniq dalillarga asoslanib e'tirof qilinganligi bois, ushbu yoshdagi bolalarni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash muhim vazifa sifatida qaralmoqda. Xususan, yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda: "Aslida, farzandlarimiz tarbiyasida eng asosiy bo'g'in hisoblangan maktabgacha ta'lif tizimining jamiyatimiz hayotidagi o'rni va ahamiyatini hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydi. Aynan maktabgacha ta'lif sohasiga bo'lgan e'tibor mamlakatning ertangi taraqqiyoti uchun mustahkam zamin yaratadi".¹

Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida 2018 yildan e'tiboran ta'lif-tarbiyaviy faoliyatini yangi yondashuv asosida yo'lga qo'yish mexanizmi joriy etildi. Bolalarni endilikda aynan maktabga tayyorlash muhim vazifa bo'lmasdan ijtimoiy hayotga tayyorlash maqsadiga asoslangan ta'lif jarayoni tatbiq etila boshlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "Zamonaviy maktabgacha ta'lif sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishda muhim o'rin tutadi" deya ta'kidlaydi. Hozirgi kunda maktabgacha ta'lif tashkilotlarida ta'lif-tarbiya jarayoni ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari va "Ilk qadam" davlat dasturi asosida rejalashtiriladi. "Ilk qadam" dasturi asosida barcha yosh

¹ <http://ma'rifat.uz>. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "O'qituvchi va murabbiylar" kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i nutqi. 30.09.2020

guruhlarida mavjud markazlar hamda umumiy guruhda ishlashni tashkil etishda tarbiyachining o‘rniga alohida e’tibor qaratiladi. Ta’lim tashkilotining ishchi o‘quv dasturi asosida barcha yosh guruhlarida mavjud markazlar hamda umumiy guruhda ishlashni tashkil etishda tarbiyachining pedagogik o‘rniga alohida e’tibor qaratildi. Ta’lim tashkilotining ishchi o‘quv dasturi tashkilot pedagoglari tomonidan ota-onalarni jalg‘etgan holda tuziladigan va amaldagi qonunchilik tartibida tasdiqlanadigan qilib belgilandi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida 5 ta markazda faoliyat yuritadilar:

1. Til va nutq markazi. (Nutq o‘sirish, tabiat, atrof-olam va badiiy adabiyot bilan bog‘liq faoliyatlar)
2. Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markazi.
3. San’at markazi (rasm, applikatsiya, loy qurish, yasash mashg‘ulotlari va origami).
4. Syujetli-rolli o‘yinlar va dramalashtirilgan markaz. (Guruh yoshiga mos bo‘lgan syujetli, qoidali o‘yinlar)
5. Ilm-fan va tabiat markazi (Tabiat va atrof olam bilan tanishtirish mashg‘ulotlari)

Bolalarni rivojlantiruvchi markazlardagi faoliyatiga yo‘naltirilgan ushbu davlat dasturi maktabgacha ta’limda yangi innovatsion yo‘lni belgilab berdi. An’anaviy tarzdagi mashg‘ulot o‘tish chetga chiqib bolalarning qiziqish va ehtiyojlariga asoslangan markazlar faoliyati o‘rtaga chiqib keldi. Markazlardagi faoliyatdan ko‘zlangan maqsad shundaki, endilikda bolalar o‘z xohish-istiklariga asoslanib, o‘z faoliyatini tanlashiga imkon berishdir. Bolalardagi individual yo‘nalganlikka tayangan holda tarbiyachining bola iqtidorini aniqlashi va uni rivojlantirishida ko‘maklashishi qoidasidir. Bo‘lajak tarbiyachilarda aynan shunday sifatlarni shakllantirishda ularni tajribali tarbiyachilar ilg‘orish tajribalari bilan tanishtirib borish zarur. Darslar mavzusidan kelib chiqib ijodiy uchrashuvlar tashkil etish talabalarni amaliy faoliyatga yanada yaqinlashtiradi.

Bo‘lajak tarbiyachilarni dastur asosidagi ta’lim jarayoniga tayyorlashda uning mazmun-mohiyatini anglab borishlari zarur. Dasturning ilmiy mazmunini anglamaslik faqatgina ko‘rko‘rona faoliyat olib borishni yuzaga keltiradi. Ammo o‘quv dasturining mohiyatini tushunish orqali tarbiyachi o‘z faoliyatini to‘g‘ri va samarali yo‘lga qo‘yish bilan bog‘liq muammolarga aniq yechim topishi mumkin. Bo‘lajak tarbiyachilar faoliyatiga innovatsion ruh berishda asosiy jihatlardan yana biri bu kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishdir.

Tarbiyachilik g‘oyatda mas’uliyatli shu bilan birga sharafli kasb bo‘lganligi bois, mazkur kasb egalaridan ko‘proq fidoiylikni talab qiladi. Chunki tarbiyachi bolalarning ikkinchi onalari hisoblanadi. Ammo u ko‘p sondagi bolalar jamoasiga rahbarlik qilgani bois, shuningdek taraqqiy etayotgan davr talablari asnosida o‘zida kompetentlik va kreativlik xususiyatlarini shakllantirishi muhim. Bizga ma’lumki, innovatsiyalar uzlucksiz ta’lim tizimini rivojlantirishning yetakchi omillaridan hisoblanadi. Ular ta’lim jarayonida bolalarning sifatli bilim olishlarini kafolatlabgina qolmay, ularning intellektual qobiliyati, mustaqillik tafakkurini shakllantirishga olib keladi.

Demak, innovatsiyalar yangiliklar asosida vujudga keladi va ta’lim jarayonini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo’ladi. Ta’lim jarayonida zamonaviy innovatsiyalardan o’rinli foydalanish tarbiyachi uchun ham bola uchun ham ko’plab qulayliklarni yaratib beradi. Shuning uchun bo’lajak tarbiyachilarini innovatsion ta’lim asosidagi ta’limiy jarayonlarga tayyorlash faqat va faqatgina samaradorlikning oshishiga olib keladi. Innovatsiya haqida gap ketganda bu so’zning manusiga alohida e’tibor qaratishimiz lozim. **Innovatsiya** (in – “lik”, novus – “yangilik”) yangilik kiritish, yangilik degan ma’noni bildiradi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat olib borayotgan tarbiyachilar innovatsion bilimga ega bo’lishi, ushbu bilimlarni amaliyatga tatbiq eta bilishi lozim. Innovatsion texnologiyalarning har bir turi tarbiyalanuvchilarda faqatgina yangi bilim hosil qilishga xizmat qilibgina qolmasdan, balki ularda har tomonlama rivojlanish mexanizmlarini tarkib toptirishda xizmat qila oladi. Ma’naviy savodxoligi sust bo‘lgan inson hayot davomida uchrashi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklar oldida esankirab qolishi mumkin. Ayniqsa ommaviy madaniyat unsurlaridan saqlanishda ham ruhiy barkamollikning yoshlikdan shakllantirilishi g‘oyatda zarur. Shuning uchun ta’lim innovatsiyalarida tarbiyaviy ta’sir elementlari uyg‘unlashtirilishiga e’tibor beriladi.

Innovatsion texnologiyalarning turlari quyidagicha tasniflangan:

- bola shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim;
- rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalari;
- o‘yinli ta’lim texnologiyasi;
- loyihaviy ta’lim texnologiyasi;
- muammoli ta’lim texnologiyasi;

axborot va aloqa vositalaridan foydalanish.²

Pedagogik innovatsiyaga asoslangan o‘qitishning ijobiy jihatlari quyidagicha sanaladi:

- ✓ ta’limda bola rolining o‘zgarishi;
- ✓ ta’lim uslublari va vositalariga yangicha yondashuv;
- ✓ bilim olishga mustaqil intilish;
- ✓ jamoa va kichik guruhlarda ishlashning tashkil etilishi;
- ✓ pedagogik boshqaruv usuli va metodlarining o‘zgarishi;
- ✓ bola shaxsiga yo‘naltirilganlik, tizimli yondashuv, ta’limni demokratlashtirish va insonparvarlashtirish.³

Ta’limda bola rolining o‘zgarishi mohiyati shundaki, u o‘zini tinglovchi sifatida emas jarayon ishtirokchisi sifatida baholaydi. Ta’limiy o‘yinlar, muammoli vaziyatlar, tajribalar va mehnat faoliyatlarida tarbiyachiga tobe’likning aksi o‘laroq o‘zini erkin faoliyat ishtirokchisi hisoblaydi. Bola o‘zini qanchalik erkin sezsa uning faolligi ham ortib boradi. Bo‘lajak tarbiyachi bola erkinligini cheklamagan holda uning faoliyat yo‘naltiruvchisi bo‘lishga erishishi kerakligini his etishi uning innovatsion ta’lim yetakchisi bo‘la olishini ta’minlaydi.

Ta’lim uslublari va vositalariga yangicha yondashuvni doimiy tashkil etishga intilish bu – ta’limni bir xillik va zerikarlilikdan xalos etadi. Faoliyatni o‘zgarib turishi ish unumining oshishiga olib keladi. Shuning uchun tarbiyachi mavjud uslub va vositalarni chuqur o‘rganish bilan birga ularni qo‘llab borish davomida kreativ g‘oyalarni ham amalda sinashi mumkin. Tarbiyachi o‘z ustida qanchalik unumli ishlay olsa uning kreativ kompetentligi rivojlanib boraveradi.

Bilim olishga mustaqil intilish bolalarda juda aktiv holatda namoyon bo‘ladi. Faqatgina bu intilish sensor tabiatiga ega. Ya’ni bola har bir yangilikni ushlab ko‘rishni, eshitishni, qo‘llari bilan siypalashni va hokazo, sezgi organlari hamrohligida o‘rganish ishtiyoqida bo‘ladi. Ammo kattalar faqatgina gapirib o‘tish orqali cheklanadi. Bu esa bolada qiziqish uyg‘onishini sustlashtiradi.

² Abduqodirov A., Begmatova N., Maktabgacha ta’lim muassasalarida multimedia texnologiyasidan foydalanish uslubiyoti. -Qarshi, ‘Nasaf’. 2011 y. 57 b.

³ Eshchanova G.N. Maktabgacha pedagogikada innovatsiyalar. Toshkent, TDPU. 2020 yil. 34 b

Demak, tarbiyachining zamonaviy innovatsion faoliyati, bu uning pedagogik mahorati belgisidir. Mahorat qanchalik yuksalishda bo'lsa, novatorlikka aylanib boradi. Innovatsion texnologiyalardan foydalana olish uchun tarbiyachi-pedagog quyidagi bilimlarni o'zida mujassamlantirishi lozim:

- AKT bo'yicha bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lishi;
- Yangi pedagogic texnologiyalar bo'yicha xorijiy tajribalardan boxabar bo'lishi;
- Ta'lim jarayonida mактабгача yoshdagi bolalar yoshiga mos keladigan didaktik o'yinlar, interfaol usullarni tanlay bilish qobilyati;
- Ilg'or pedagogik yangilanayotgan g'oyalalar bilan tanishib borish;
- Bilimlarning ko'nikma va malakaga aylantirish asosida o'z kasbiy pozitsiyasini shakllantirib borish;
- Mashg'ulotlarda harakatli o'yinlardan foydalana olish;
- Turli yo'nalishdagi bilimlarni integratsiyalashgan holda amaliyotda o'rgatishga erishish.

Mактабгача yoshdagi bolalarning fikrlash faolligini rivojlantrishda zamonaviy innovatsion texnologiyalarning o'rni juda muhim. Tarbiyachi tomonidan olib borilgan har qanday pedagogik innovatsiyalar ularning yashirin qobilyat va istedodlarini rivojlantrishda, tafakkur, fikrlash qobilyatlarini shakllantrishda muhim o'rinn tutadi.” Bolaning fikrlash faolligini rivojlantrish uchun innovatsion o'yinlar katta ahamiyatga egadir.O'yin natijasida bolaning bilimi kengayib boradi.O'yinda bola o'z oldiga maqsad qo'yadi, bu boladan aql idrok ishlatishti fikrlash faoliyatini rivojlantrishni talab qiladi.O'yin faoliyati orqali bola gaplashishga, tortishishga, bahslashishga, aytib berishga to'g'ri keladi.Bu esa uni fikrlashga undaydi.

Mактабгача ta'lim tashkilotlarida zamonaviy innovatsion texnologiyalar orqali bolalar o'zi yasayotgan narsalarini yaxshiroq yasashga, qurish uchun juda ko'p o'ylab fikrlashga to'g'ri keladi.Bular hammasi bolalar tafakkuri va xayolining rivojlanishida muhim ahamiyatga egadir.Tarbiyachi tomonidan o'tiladigan mashg'ulotlar faqatgina tushuntrishlar bilan cheklanib qolmasdan,mashg'ulotlarda muammoli vaziyatlardan, teskor savol javoblardan, harakatlar bilan bajariladigan she'rlardan,innovatsion didaktik o'yinlardan foydalanish kerak.Bularning bari bolalarni fikrlashga majbur etib olgan bilimlarni hayotda qollashga o'rgatadi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi tarbiyachilarning innovatik g'oyalarga boy bo'lislari ularning kasbiy zarurati hisoblanadi. Kichik yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasi nihoyatda mashaqqatli faoliyat bo'lganligi bois, tarbiyachidan doimiy yangilik yaratib turishni talab etadi. Tarbiyachi pedagogik mahoratga qachon erishadi – qachonki u “bilim-ko'nikma-malaka” kombinatsiyasida uzluksiz ijodiy harakatda bo'lgan bo'lsa... Ya'ni, buning ma'nosi shundaki, o'quvchi mazkur kasbni tanladimi, kasbga doir ma'lumotlarni tizimli ravishda o'rghanadi va ongida yaxlit bilimni hosil qiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion yangiliklardan yana biri sifatida ijodiy o'quv xonalari tashkil etish mumkin. Ijodiy o'quv xonalari yoshlari ongini o'ziga jalg etadigan innovatsion o'qitish usullari bilan ajralib turadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti ushbu ijodiy o'quv xonalarda interfaol ta'lim o'yinlari, amaliy mashg'ulotlar va hamkorlikdagi loyihalarni o'z ichiga olgan turli xil usullardan foydalanadi. Ushbu usullar nafaqat o'rganishni qiziqarli qiladi, balki har bir bolaning turli xil o'rganish uslublariga mos keladi. Raqamli asrda maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarini texnologiyani kengaytirilgan o'rganish vositasi sifatida qabul qilmoqdalar. Interfaol ta'lim ilovalari, raqamli hikoyalar va multimedia taqdimotlari guruhdagi tajribaga yangi o'lchov qo'shadi. Texnologiyani integratsiyalash an'anaviy va zamonaviy o'qitish metodologiyalarining uzluksiz uyg'unligini ta'minlaydi, bolalarni texnologiyaga asoslangan dunyoga tayyorlaydi va ularning qiziqishini oshiradi. Ta'limda o'yinning kuchi beqiyos o'yin bolalik tilidir va ijodiy guruhlar ta'lim maqsadlarida o'yin kuchidan foydalanadi. Maqsadli o'yinlar orqali bolalar bog'chasi tarbiyachilarini bolalarni kashf qilish, tajriba qilish va muhim ko'nikmalarni rivojlantirish uchun imkoniyatlar yaratadi. O'yinga asoslangan ta'lim nafaqat kognitiv qobiliyatlarni oshiradi, balki ijtimoiy va hissiy o'sishni ham rivojlantiradi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti o'qitish dunyosi cheksiz ijodkorlik va innovatsiyalardan biridir. Bog'cha tarbiyachilarini tarbiyalanuvchilar qalbida o'qishga mehr uyg'otish orqali kelajakni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Erta ta'limga dinamik yondashuvlarni nishonlar ekanmiz, sifatli o'qituvchilar tayyorlash muhimligini tan olishimiz kerak. Maktabgacha talim tashkiloti o'qituvchilarini va tarbiyachilar bolalarni kashfiyotga, tasavvurga va o'rganishga bo'lgan muhabbatga yordam beradi. Ularning roli an'anaviy o'qitish usullaridan tashqarida bo'lib, bolalar gullab-yashnashi mumkin bo'lgan

rag'batlantiruvchi va inklyuziv muhitni yaratishni o'z ichiga oladi. Zamonaviy innovatsion dunyoda tarbiyachilar uchun dolzarb bo'lib kelayotgan treninglardan biri fonetik trening. Bolalar bog'chasi tarbiyachilari erta savodxonlik ko'nikmalarini rivojlanirishga intilishda ko'pincha o'zlarining o'quv dasturlariga fonetik o'qitishni kiritishlari lozim. Bolalarga tovushlar va harflar o'rtasidagi munosabatni o'rgatish orqali o'qish va yozish qobiliyatiga zamin yaratadi. Ushbu innovatsion yondashuv til rivojlanishini yaxshilaydi va umrbod o'qishga bo'lgan muhabbat uchun zamin yaratadi.

Maktabgacha talim tashkiloti tarbiyachilarini tayyorlash: innovatsiyalar uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Maktabgacha ta'limning rivojlanayotgan landshaftini boshqarish uchun bolalar bog'chasi o'qituvchilari maxsus tayyorgarlikdan o'tadilar. Bolalar bog'chasi o'qituvchilarini tayyorlash dasturlari o'qituvchilarni o'z guruhlariga ijodkorlik, texnologiya va innovatsion o'qitish metodologiyasini integratsiya qilish ko'nikmalari bilan ta'minlaydi. Ushbu trening tarbiyachilarning erta yoshdagi ta'lim sohasidagi so'nggi yangiliklardan xabardor bo'lishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Til o'rganish sohasida fonetika va fonologiyani tushunish yangi tilni o'zlashtirishda muhim rol o'ynaydi. Fonetika nutq tovushlari, ularning hosil bo'lishi va idrok etilishini o'rganadi, fonologiya esa tillardagi tovushlarni tizimli tashkil etish va ularning birikmalarini tartibga soluvchi qoidalarni chuqurroq o'rganadi. Odamlarga fonetika asosiy tilshunoslik hisoblanadi, chunki u bolalarda so'zlarning to'g'ri talaffuzini tushunishga yordam beradi. Biror kishi yangi tilni o'rganganda, u o'z ona tilida mavjud bo'limgan notanish tovushlarga duch keladi. Hozirda deyarli barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ingliz tili mashg'ulotlari olib boriladi, ushbu mashg'ulotlar davomida bolalarda turli xil fonetik qiyinchiliklar kelib chiqishi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi "thin" tovushlari kabi "th" va "th" tovushlari orasidagi farq "thin" kabi "th" tovushlari o'rtasidagi farq ona tili bo'limganlar uchun qiyin bo'lishi mumkin. Fonetika artikulyatsion xususiyatlarni tushunish orqali ushbu tovushlarni aniq ishlab chiqarish vositalarini taqdim etadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarini fonetika va fonologiya (alohida tovushlardan tashqariga chiqadi va tovushlarning ma'lum bir tilda qanday ishlashiga e'tibor beradi)ni yaxshi bilsalar , ular nutq va tinglash qobiliyatlarini sezilarli darajada oshirishlari mumkin. Ular tovushlarni aniq taqlid qilishlari mumkin, bu ularning nutqini yanada tushunarli va tabiiy qilishga yordam beradi. Bundan tashqari, fonologiyani tushunish so'z shakllarini tanib olishga va o'qish yoki suhbatda

uchraydigan yangi so'zlarni tushunishga yordam beradi. Ma'lumki, bolalarda 3 yoshdan boshlab "Men" obrazi shakllansa, 5 yoshlarga borib "Sen" ya'ni hamkorlik texnologiyasi asosidagi faoliyat takomillasha boshlaydi. O'zaro jamoaviy do'stona munosabatlar bola hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lib boradi. Ko'pincha shu yoshdagি bolalar jamoasida interfaol metodlar bolalarda ijobiy natija kasb etadi.

Maktabgacha ta'lif tashkiloti kichik va o'rta guruhlarida fonetika bolalarni kelajakda o'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Fonika bolalarga harflar (grafema) va tovushlar (fonema) o'rtasidagi munosabatni o'rgatishni o'z ichiga oladi. Ushbu tizimli yondashuv bolalarga so'zlarni ovoz chiqarib, ularni dekodlashda yordam beradi va shu bilan ularning ravon o'qish va tushunishni yaxshilaydi. Til o'qituvchilari uchun fonetika va fonologiyani chuqur tushunish ajralmas hisoblanadi. Bu ularga talaffuz xatolarini tashxislash va tuzatish, samarali talaffuz mashqlarini ishlab chiqish va o'quvchilarning o'ziga xos fonologik muammolarini hal qilish uchun darslarni moslashtirish imkonini beradi.

Pedagogik boshqaruv usuli va metodlarning o'zgarishi bu – innovatsion yangilanishning asosiy nuqtasi sanaladi. Chunki innovatsion faoliyat – boshqaruv va metod asosiga quriladi. Agarda boshqarish jarayoni sustlashsa metod o'z ahamiyatini yo'qota boshlaydi. Metodlar yangilab turilmasa boshqaruvda ham bir yoqlamalilik saqlanib qoladi. Shuning bu ikki o'zaro bog'liq jarayonni tarbiyachi yo'lga qo'yishda ilmiy salohiyatiga tayanib yuzaga chiqarishi lozim. Boladagi kognitiv rivojlanish aynan shu faoliyat davomida takomillashishni boshlaydi. Ta'lifning bola shaxsiga yo'naltirilganligi innovatsion faoliyatning tarkibiy muhim qismidir. Shaxsda kutilayotgan natijaga erishish pirovardida, avvalo, uning salohiyatiga nazar tashlanadi. U nimaga qodir va qodir emas? Individual yondashish qanchalik murakkab bo'lmasin, agarda tizimli davom etib borsa albatta, mukammal kamolotga eltishi tayindir. Demokratlashtirish va insonparvarlashtirish esa, bizning azaliy qadriyatlarimiz asosidagi milliy tarbiya bilan uyg'unlashgan ta'lif maqsadi hisoblanadi. Chunki insonparvarlik negizida insonning ne'mat ekanligi, uning qadr-qimmati va e'tiqodining ulug'ligini yosh avlodga ilk yoshdan singdirish masalasi yotadi. Demokratiya inson xohish-istiklarining boshqalar tomonidan hurmat qilinishi va inson erkinligining ta'minlanishidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi” 2019 yil 8 maydagi PQ-4312-son qaroriga 1-ilova. 3 bob, 4§
2. Jalilova “Maktabgacha yoshdagি bolalar psixologiyasi” “Faylasuf” Toshkent 2017
3. F.M.Yuldasheva “Xorijda maktabgacha ta'lim” Ma'ruzalar matni, Termiz, 2018, 7 bet
4. Grosheva I.B., Mirziyoyeva SH.SH., Tashmuhammedova F.B., Rustamova M.E., Madjidova H.A., Mikailova U.T., Ismailova M.A “Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlarini ishlab chiqish” Metodik qo'llanma, Toshkent, 2020 yil 8 bet
5. <http://arxiv.uz> referatlar Tarbiyachining innovatsion faoliyati 2019 yil
- 6.<http://new.tdpu.uz> > article “Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda rivojlantiruvchi muhitning ahamiyati” Z.K.Alimova